



MUQIMIY IJODIDA ADABIYOT VA IQTISODIYOTNING UYG‘UNLIGI

Nurillayev Muhammadxon Isroilxon o‘g‘li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Marketing va logistika fakulteti talabasi
muhammadxonnurillayev@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o‘z davrining buyuk shoir va mutaffakkiri bo‘lgan Muhammad Aminxo‘ja Mirzaxo‘ja o‘g‘li Muqimiyning hajviyotlari va g‘azallari, XIX-XX asrlarning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli haqida gap boradi va qolaversa shu asarlarida davlat boshqaruviga va o‘z davri iqtisodiyotiga bo‘lgan munosabati va tanqidiy fikrlari haqida fikr yuritilgan va tahlil qilingan. Bundan tashqari Muqimiyning bu tanqidiy hajviy durdonalari va g‘azallari qanchalik davlat boshqaruvi va iqtisodiyotga ta‘sir ko‘rsatgani batafsil yoritib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *Muqimiy, hayoti va ijodi, davlat boshqaruvi, adabiyot, iqtisodiyot, iqtisodiy qarashlar, tanqidiy fikrlar, siyosat, adolat.*

Adabiyot so‘z san‘atidir. U inson qalbi va ruhidagi nozik tovlanish va ohanglarni ilg‘ashga, ularni so‘z vositasida aks ettirishga intiladi. Eng oliy daraja, yuksak pog‘onalarga chiqqan oladigan badiiy adabiyot namunalari insoniyatni to‘lqinlantiradigan, hayajonga soladigan o‘y-fikrlar, kechinmalar, orzu-umidlarni ifodalaydi. Dunyoda insonlar bir-birlariga o‘xshamaganlaridek, ularning qalb kechinmalari ham takrorlanmasdir. O‘zbek adabiyoti tarixi inson ruhiy holatlarini mahorat bilan aks ettirgan durdonalarga boy. Ular hozirgi avlod ruhiyatida, qalbidam ham hayajon uyg‘ota oladi, ularning ma‘naviy boyishlariga



tegishli hissa qo'sha oladi. Muhimi, ular faqat ma'rifiy bilimimizni oshirish bilan cheklanmay, badiiy didimiz takomiliga, ma'naviy kamolotga xizmat qiladi.

Muqimiy taxallusi bilan tanilgan Muhammad Aminxo'ja Mirzaxo'ja o'g'li 1850-yilda Qo'qonda ziyolilar oilasida tug'ilgan. U ushbu hudud yani mintaqada siyosiy o'zgarish qaysidir ma'noda ijtimoiy-siyosiy silkinish davrining guvohi bo'lgan. O'zbek shoiri va mutafakkiri o'zining ijodi namunalarida qashshoqlik, adolatsizlik, va korrupsiya muammolari xususan, siyosiy-iqtisodiy ahvolga ijobiy tomonga o'zgartirish maqsadida satira va aql-zakovatni birgalikda ishlatib uni bu muammolarga qarshi qurolga aylantira olganini ko'rishimiz mumkin.

Muqimiyning o'z davri siyosati bilan boyitlgan she'rlari xalq yuragidan chuqur joy egallagan va ular qalbidan aks-sado bergan. U hokimiyatning xalqqa nisbatan zulumkorona amallarini tanqid qilib, buni ochiqchasiga baralla aytishdan qo'rqmagan. Uning "Maskovchi boy tarifida", "Veksel", "Viktor boy" va "Tanobchilar" kabi hajviyotlari jamiyatni isloh qilish, mazlumlar dardi va ularni bu boshqaruv tizimidan hafsalasi pir bo'lganini ifoda etuvchi hayqiriqdir.

Chiqib yangi maskovchidan boylar,

Sinar o'tmayin ba'zisin oylar.

"Maskovchi boy tarifida" hajviyasida ushbu misralar O'rta Osiyo Rasiyaga qo'shilgandan so'ng kapitalistik munosabatlar boshlanishi va rivojlanishi mahalliy xalq ichida Moskvaga borib-kelib savdogarchilik qiladigan boylar chiqishiga sabab bo'lgan edi va gap shu to'g'risida boradi.

Xususankim eshoni Xodixo'jam,

Yo'q og'zida qarzini vahmida nam.

Mana bu yerda Muqimiy umimiylikdan xususiylikka qarab, yani ushbu hajviya kimni fosh qilishi yanada oydinlashmoqda. Xodixo'ja eshon o'sha vaqtlarda Qo'qonnong boy boy shaxslaridan biri bo'lib, uning katta paxta yer maydonlari, paxta tozalovchi zavodlari, magazinlari (do'konlari), ana shu



do'konlarni Farg'onaning yana ayrim hududlarida bo'limlari bo'lgan. Muqimiy "Maskovchi boy tariifda" hajviyasidan tashqari, o'zining "Veksel", "Viktor boy" va yana bishqa satiralarida ham bu shaxsni ko'p tilga olgan uning xarakteri, fe'l-atvorining yangi tomonlarini ochib ommaga satira libosi bilan o'ralgan holatda taqdim etdi va ekspluatator sinfi yani boshqalar Mulki va mehnatidan foydalanuvchi mulkdor shaxslar sinfi to'liq vakil sifatida fosh etdi.

**Der emishki, o'risga nisfin beray,
Kelar yilga yarmiga muhlat so'ray.
Qachon bo'lmagan gap qabul aylasin,
Muqarra degaykim, pechat boylasin.**

Revolyutsiyadan odin qarz oluvchilar va beruvchilar o'rtasida shunday kelishuvlar bo'lganki yani biron shaxs qarz olasayu kelishilgan muddatda ana shu qarzini qaytara olmasa, yani u yuritayotgan ishlar zarariga ishlay boshlasa, uning molk-mulki garov sifatida puldorlar tomonidan musodara qilingan va ular shu yo'l bilan "pechat" qilingan va o'zlashtirilib olingan. Muqimiy esa kapitalistik munosabatlarni vujudga keltirgan mana shu xodisa haqida so'zlamoqda.

**Netarmiz, debon qistamas el pulin,
–Berurmen, –desa, –so'miga o'n tiyin.**

Ushbu satirada bu qatorlarga ko'zimiz tushadi va o'sha paytlarda bo'lgan sudxo'rlik va korrupsiyadan barchamizning dilimiz xufton bo'ladi. Qarzdor kishi puldorga va amaldorlarga pora sifatida (sudxo'rlik) belgilangan miqdorda (stavkada) pul ijarasi to'lashga majbur bo'lgan. Sudxo'rlik kapitalistik munosbatlar boshlangan so'ng avj oldi va natijada mahalliy mehnatkash xalq orasida qarzdorlik ko'paydi. Qardorlik shu davrlar adabiyotinign asosiy muammolari va mavzularidan biridir.



**Kelib qoldi o‘ziga nogah qasam,
Sarih bo‘ldi yolg‘onligi muttaham.**

O‘sha davrlarda birov-birovga da‘vo qilsa, qonun ya‘ni shariat da‘vo qiluvchi javobgar shaxslarga qasam ichdirar edi. Ushbu qasam masalasi o‘sha davrning eng yomon, chidab bo‘lmas qonunlaridan biri edi. Boylar, katta mulk egalari, katta yer egalari bo‘lgan muttaxam shaxslar qasamni qurol qilib oddiy kambag‘al mahalliy xalq qatlami, ko‘p nafar kosib, dehqonlarni xonavayron qilar edilar. Ya‘ni turli qo‘rqituvlar va tayziqlar bilan qarzlardan bir necha baravar ko‘p turadigan mulklarini garov sifatida qo‘ydirib ularni qarzlarini yopa olmagan taqdirda musodara qilishga roziligi borasida qasam ichdirishgan.

Mana shunday oshkora satira libosiga o‘ralgan tanqidlar Muqimiyning chor rossiyasi siyosatiga bo‘lgan quroli desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Muqimiy hajviyalari kitobxonni zeriktirib qo‘ymaydi. U goh kuldiradi, gohida esa chuqur o‘yga toldirib qo‘yadi. Uning hajviyalari qahramonlari bizning davrimizda ham yo‘q emas albatta. Muqimiy hajviyalari orqali xalqning qalbiga tez kira bildi. Uning sodda, hamma uchun tushunarli hajviyalarda real turmushdan olingan voqealar aks ettirilgan. Shoirning qo‘lida kulgu qo‘pol qah-qaha yoki shunchaki xushchaqchaqlik, bachkana mutoyiba emas, balki hayotdagi qoloq taraqqiyotiga to‘siq g‘ovlarni shaxslar ongi va tabiatidagi ojizlik va salbiy belgilarni xunuk fe‘l-atvor va o‘rinsiz hatti-harakatlarni qoralash, tanbeh berish, ogohlantirish vazifasini o‘taydi.

Muqimiyning tasvir va metaforalardan mohirona foydalanishi uning siyosiy sharhiga chuqurlik va ta‘sirchanlik qo‘shadi. U iztirob va shunday xo‘rlilarni shu darajada tasvirlaydiki, bu she‘rlarni o‘qigan har bir shaxs mana shunday adolatsizliklarga qarshi tura oladi va albatta qarshi kurashish bilan birga, usha davr zahmatlarini ruhan his qiladi.



Qolaversa Muqimiyning she'rlari ta'siri O'zbekiston chegaralaridan oshib ketdi. Uning she'rlari, g'azallari va hajviyotlari turli tillarga xususan, ingliz, nemis, rus, bengal va hind tillariga tarjima qilingan va butun dunyo adabiyot ixlosmandlariga yetib borgan. Olimlar va adabiyot ixlosmandlari uning tarixiy mazmuni, ijtimoiy sharhi va iqtisodiy jihatlarini, siyosiy jozibasini va sof badiiy fazilatlarini yuqori baholab, ijodini tahlil qilishda davom etmoqda. Qo'ldosh Pardayev, G'ulom Karimov va Said Abdulla aynan manashunday jonkuyarlardandir.

O'zbekiston jahon adabiy manzarasida o'ziga xos yo'lni bosib o'tishga intilayotgan bir paytda Muqimiyning tanqidiy she'r-u g'azal, muxammaslari ilhom manbai bo'lib qolmoqda. Uning siyosiy she'riyati muxolifat kuchini va ijtimoiy adolat uchun kurashning ahamiyatini eslatuvchi mayoq bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, yozib qoldirgan she'r-u g'azal, muxammaslari shunchaki bitiklar emas balki, ular zulmkorlik, sutxo'rlik, korrupsiya va adolat, birdamlik o'rtasidagi doimiy kurashlarni aks ettiruvchi abadiy oynadir. Bu san'at durdonalari yaratilgani asr o'tgan bo'lsa-da, uning misralari o'z kuchini hali hanuz saqlab, adolat va javobgarlik uchun kurash doimiy say harakat talab etishini eslatib turadi. Yuqorida aytilganidek, Muqimiyni merosi mayoq vazifasini o'taydi, ya'ni til, adabiyot yolg'onga adolatsizlikka qarshi qurol sifatida ishlatishga, tanqidiy-siyosiy adbiyot namunasi quruq va'dalardan ham balandroq jaranglaydigan, adolatni, yuksalishni, korrupsiyaga qarshi kurashishni talab qilishga va bunga tortinmaslikka undaydi. Bu buyuk shaxsning hayot va ijod yo'lini o'rganish faqat zavqlanishdan tashqari, kognetiv bilish va yangidan yangi bilimlar beradi. Har qancha qayta izlanish natijasida yana boshqa yangi qirralari chiqib boraveradi va biz yoshlarni adolatparvarlikka va davlat siyosatiga to'g'ri munosabatda bo'lishimizni taminlaydi.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G‘ofur G‘ulom, “Tanlangan asarlar”. Toshkent-1953.
2. G‘ulom Karimov., “Muqimiy”, T.:“Manaviyat”.2009
3. Karimov F., Muqimiy. Hayoti va ijodi, T., 1970
4. Xushanov A., Muqimiy hajviyotida shakl va mavzu rangbarangligi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.6741059>
5. Karimov G‘., Muqimiy, Asarlar., Toshkent-1974.
6. G‘ulom Karimov, “Muqimiy”., -ikki tomlik asarlar to‘plami. Toshkent-1960.